

# Hayotiy zarur infratuzilmani qo'llab-quvvatlash dasturi: Elektr ta'minoti obyekti

Mamlakat: O'zbekiston

Loyha raqami: 52135

Faoliyat sohasi: Energetika

Bildirishnoma turi: Davlat

Ekologik toifasi: B

Tasdiqlanadigan kuni: 2020-yil, 24-iyun

Qaysi bosqichdaligi: **Konsepsiya muhokamadan o'tgan**

Loyihaning qisqacha mazmuni chop etilgan sana: 2020-yil, 11-may

## Loyha mazmuni

Mazkur loyiha "Sirdaryo IES" AJ, "Toshkent IES" AJ, "Navoiy IES" AJ, "Taxiatosh IES" AJ jamiyatlarining aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni moliyalashtirishga ajratish uchun O'zbekiston Respublikasiga 85,7 mln. AQSH dollarigacha miqdorda kredit ajratilishni ko'zda tutmoqda. Yuqoridaq aksiyadorlik jamiyatlari O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ularning barchasi "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ davlat energetika kompaniyasiga (keyingi o'rnlarda "Kompaniya" yoki "IES" deb yuritiladi) tegishli hisoblanadi.

## Loyha maqsadi

Bu kredit mablag'lari YTTBning COVID-19 inqiroziga qarshi choralar ko'rilib yotgan bir paytda IESning shu'ba korxonalarining aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini moliyalashtirish uchun ishlataladi. Loyha kompaniyalarga likvid mablag'lar orqali ko'maklashgan holda, joriy islohotlarning uzoq muddatli maqsadlarini COVID-19 virusiga qarshi darhol ta'siri bilan uyg'unlashtiradi. Ayni vaqtda u moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) amalda qo'llashni qo'llab-quvvatlash orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish tarmog'ini aksiyadorlashtirish va tijoratga yo'naltirishga yordam beradi. Bu loyiha Hayotiy zarur infratuzilmani qo'llab-quvvatlash dasturi (VISP) doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, u YTTBning COVID-19 birdamlik loyihasining bir qismi hisoblanadi.

## O'tish davri ta'siri

Kutilayotgan o'tish davri ta'siri (KO'DB) bahosi: 60

ETI 60-65. Loyha o'tish davri ta'sirining barqaror va samarali boshqarish kabi sifatlaridan unumli foydalanishi kutilmoqda. Ushbu loyiha, birinchi navbatda, qayta tizimlashtirish jarayonida energetika tarmog'ining risoladagidek ishlashini ta'minlash va COVID-19

inqirozi davrida o'tish jarayonining sur'atini birdek saqlab qolish barobarida bankning kompaniya bilan doimiy hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan. Shu bilan birga, loyiha kompaniyaning joriy ish faoliyatiga MHXSni tatbiq qilish orqali kompaniyaning shu'ba korxonalarida MHXSning qo'llanilishini Bank yordamida qo'llab-quvvatlaydi.

## Mijoz haqida

O'ZBEKISTON SUVEREN

"Issiqlik elektr stansiyalari" AJ davlat energetika kompaniyasi

## YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'

85 700 000.00 AQSH dollar

"Issiqlik elektr stansiyalari" AJ davlat energetika kompaniyasining ((keyingi o'rnlarda "Kompaniya" deb yuritiladi) shu'ba korxonalari hisoblangan "Sirdaryo IES" AJ, "Toshkent IES" AJ, "Navoiy IES" AJ, "Taxiatosh IES" AJ jamiyatlariga taqdim qilish uchun O'zbekiston Respublikasiga 85,7 mln. AQSH dollarigacha miqdorida kredit mablag'lari. Kompaniya tabiiy gaz asosida O'zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarishga mas'ul bo'lgan "O'zbekenergo" AJning vorisi hisoblanadi.

## Loyihaning umumiyligi

85 700 000.00 AQSH dollar

## Qo'shimcha shartlar

Moliyaviy tuzilma: YTTB Loyihani tuzilmalashtirish uchun zarur bo'lgan shartlar (shu jumladan, tegishli to'lov muddati) bo'yicha ayni paytda kreditlash bozorida muqobili bo'limgan moliyalashtirishni taklif etadi. Inqirozga qarshi ta'sir: YTTBning kredit mablag'lari bozorning noqulay sharoitlari tufayli moliyalashtirishda yuzaga kelgan qiyinchilikni samarali tarzda yengillashtiradi.

Davlat sektori: YTTBning bu mablag'lari moliyalashdagi tanqislikni bartaraf qilish zarurdir.

Standartlarni belgilash: loyihalar va mijozlarga yanada yuqori standartlarga erishish uchun ko'mak. Mijozning YTTB tajribasini yuqoriroq hisoblangan moliyaviy standartlarda, shu jumladan moliyaviy kelishuvlar orqali qo'llashi kutilmoqda.

Bilim, innovatsiya va salohiyatni oshirish: YTTB loyiha maqsadlarini o'z vaqtida amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tajriba, innovatsiya, bilim, imkoniyatlar, shu jumladan mijozlar salohiyatini oshirishga yordam beradi.

## Ekologik-ijtimoiy xulosa

B toifasiga kiritildi (ESP 2019) Uskunalar eskiligi sababli yuqori o'rtacha xavf toifasiga kiritildi. Chunki, loyiha jarayonida Yevropa Ittifoqining atmosferaga chiqariladigan chiqindilar bo'yicha tegishli me'yorlarga (Sanoat chiqindilari to'g'risidagi direktiva) rioxal qilmaslik xavfi va mehnat xavflari mavjud. Ko'zda tutilgan loyiha bitimining mustaqil

ekologik va ijtimoiy ekspertizasi Toshkent elektr energiyasi uchun kreditning (ayni mijoz) ana shunday ekspertizasi bilan birgalikda qilinadi. Bu ekspertiza, asosan, loyiha tashkiloti va 4 ta tegishli elektr stansiyalarining rahbariyati tomonidan to'ldiriladigan individual so'rovnomalarni ko'rib chiqish, atrof-muhit va ijtimoiy masalalar bo'yicha elektr stansiyalarini rahbarlari bilan masofaviy intervyu hamda ikkita eng yirik elektr stansiyalariga virtual tashriflar asosida amalga oshiriladi. Bu ekspertiza masofadan qilingan ekspertiza natijalarini tekshirish uchun koronavirus sababli o'rnatilgan sayohat chekllovlarini olib tashlagandan keyin obyektlarga tashrif buyurishni ham o'z ichiga oladi. Bunday obyektga tashrif loyiha kengashi tomonidan tasdiqlangandan keyin amalga oshirilishi mumkinligi sababli, ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasini (ESAP) hamda kredit shartnomasida ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasini yangilash uchun havola berilishi kerak.

## Texnik ko'mak va grant asosida moliyalashtirish

Loyihani tayyorlash va amalga oshirishda texnik ko'mak mablag'lari jalb qilinishi mumkin.

## Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

"Issiqlik elektr stansiyalari" AJ, Xalqaro iqtisodiy aloqalar va investitsiyalar bo'limi – Zafar To'raev  
uvespi@tpp.uz  
+998 71 230 9569  
<https://www.tpp.uz/>  
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Bunyodkor shohko'chasi, 23-uy. Pochta indeksi: 100097

## Loyihaning qisqacha mazmuni so'nggi marta yangilangan sana

2020-yil, 11-may

### Shu mavzuga oid material

- [Tarjima: VISP: Electricity Support Facility \(Russian\)](#)

Turi: PDF, e'lon qilingan sana: 13.05.2020, til: ruscha

## O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumot bilan mana bu [havolada](#) tanishishingiz mumkin.

## Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: [projectenquiries@ebrd.com](mailto:projectenquiries@ebrd.com)

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: [procurement@ebrd.com](mailto:procurement@ebrd.com)

## Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlari [YTTB so'rovlari shakli](#)dan foydalangan holda berilishi mumkin.

## Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rinishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

## Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda [compliance@ebrd.com](mailto:compliance@ebrd.com) elektron pochtasi orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonim tarzdagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagisi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank

faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

## Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. Mayjud ma'lumotlar bilan tanishib chiqish uchun YTTB veb-saytidagi [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

## Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (PCM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'nii PCM yordamida o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

PCM, arizachilarining fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'rildigan choralarini ko'zda tutish.

Shikoyatlarni [maxfiy elektron shakl](#) yordamida [elektron pochta](#), [pochta yoki telefon](#) orqali qanday yuborish haqidagi ma'lumot bilan veb-saytimizda tanishishingiz mumkin. Biz xavotirlaringizni, shuningdek shikoyatlarni jo'natish va ko'rib chiqish bilan bog'liq har qanday masalalarni muhokama qilishga tayyormiz. Kerak bo'lsa, arizachilarining shaxsiy ma'lumotlarini maxfiy saqlaymiz.

Shuni ta'kidlash joizki, 2020-yilda PCMning yangi rahbari tayinlanganidan so'ng, qayta ko'rib chiqilgan [Loyiha bo'yicha hisobdorlik siyosati](#) undan foydalanish uchun [Qo'llanma](#) kuchga kiradi hamda shikoyatlar ana shu yangi hujjatlarga muvofiq ko'rib chiqiladi